

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi:

SHARTNOMA

2. Loyihaning nomi:

Telekomunikasiya xizmatlari ko‘rsatish haqida

3. Loyiha ishlab chiqilgan va yuridik xizmat ko‘rsatish markaziga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Loyiha 2022-yil 20-yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 20-yanvar kuni markazga taqdim qilingan.

Bir tomondan ishonchnoma asosida “Uzbektelekom” AJ nomidan Uchko‘prik telekomunikasiyalar bog‘lanma boshlig‘i O.Matxoliqov (keyingi o‘rinlarda “Operator” deb yuritiladi), ikkinchi tomondan buyruq asosida Uchko‘prik tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi nomidan bo‘lim boshlig‘i E.Mamasoliev (keyingi o‘rinlarda – “Abonent” deb yuritiladi) o‘rtasida tuziladigan telekomunikasiya xizmatlari ko‘rsatish haqidagi shartnomasi loyihasida: shartnoma imzolanishi bilan “Abonent” bilan ilgari tuzilgan barcha shartnomalar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi.

Shartnoma imzolanishi bilan “Abonent” “Uzbektelekom” AJning rasmiy veb-saytida ko‘rsatilgan ommaviy ofertani qabul qilgan hisoblanadi. Ushbu shartnoma imzolanganidan so‘ng “Operator” “Abonent”ning texnik imkoniyatlari mavjudligini tekshiradi, “Abonent” esa telekomunikasiya xizmatlaridan limitlar va rejimiga mos tartibda foydalanib, byudjet parametrlarida belgilangan miqdor doirasida mablag‘ni to‘lab berish majburiyatini oladilar.

Shartnoma sumamasi bir oy uchun QQS bilan 20.000 (yigirma ming) so‘mni, uch oyga 60.000 (oltmish ming) so‘mni tashkil qiladi.

Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrga qadar.

Shartnoma loyixasini xuquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra:

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 122-moddasi 5-qismida “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish to‘g‘risida tuziladigan shartnomalarida 15 foiz miqdorida oldindan to‘lojni amalga oshirish nazarda tutiladi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollar bundan mustasno.” deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgustdaggi 241-son “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to‘lashi mumkin bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ilovasida

ko'rsatilgan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari Ro'yxati"da Mobil aloqa va telekommunikasiya xizmatlari uchun shartnomaning oylik summasidan 100% oldindan to'lash mumkinligi belgilangan.


O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 122-moddasi 3-qismiga ko'ra, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

XULOSA QILAMAN:

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi va amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Uchko'prik tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi tomonidan taqdim qilingan telekomunikasiya xizmatlari ko'rsatish haqidagi shartnomasi loyihasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq deb topilsin.

Uchko'prik tumani Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



20-yanvar 2022-yil

I.Murodov